



**QARAQALPAQSTAN**  
**RESPUBLIKASI MAMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASININ**  
**B U Y R I G' I**

---

**30-Avgust 2023-jil.**

**№ 147**

**Nókis qalasi.**

**O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi “Madaniy meros ob'yektlari restavratsiyasi direksiyasi” davlat muassasasining mintaqaviy restavratsiya markazini tashkil etish to'g'risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi “Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-101-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi “Davlat muassasalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 302-son qarorining nizom talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ-5054-sonli va 2021-yil 19-iyundagi PQ-5051-sonli Qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5054-sonli qarorining 15-bandida Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan Madaniy meros ob'yektlarini asrashga doir restavratsiya, ta'mirlash tiklash va obodonlashtirish ishlarini sifatli amalga oshirish maqsadida yuridik maqomiga ega davlat muassasasi shaklidagi O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi huzuridagi “Madaniy meros ob'yektlari restavratsiyasi direksiyasi” davlat muassasasining mintaqaviy restavratsiya markazini tashkil etish belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi huzuridagi yuridik shaxs maqomiga ega davlat muassasasi shaklidagi “Madaniy meros ob'yektlari restavratsiyasi direksiyasi” davlat muassasasining mintaqaviy restavratsiya markazini tashkil etishga va belgilangan tartibda davlat ro‘yxatdan o‘tkazilishiga rozilik berilsin.

3. Murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassis v.v.b (Urazbayeva) mazkur buyruqning nusxalarini O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi “Madaniy meros ob'yektlari restavratsiyasi direksiyasi” davlat muassasasiga, Nukus shahar Davlat xizmatlari markaziga va Boshqarma tegishli bo'linmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Boshqarma boshlig‘i**



**M.Radjapov**